

**UZBEKISTAN**

**LANGUAGE & CULTURE**

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:  
TIL VA MADANIYAT**

**Lingvistika**

2025 Vol. 3 (1)

[www.linguistics.tsuull.uz](http://www.linguistics.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Hamidulla Dadaboyev  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Zulxumor Xolmanova  
**Mas'ul kotib:** Dilafruz Muhammadiyeva

### **Tahrir hay'ati**

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Hamidulla Dadaboev  
**Deputy Editor in Chief:** Zulkhumor Kholmanova  
**Executive secretary:** Dilafruz Muhammadiyeva

### **Editorial Committee**

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

### **Journal information**

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.linguistics.tsuull.uz

# MUNDARIJA

## Lingvistika

### **Hamidulla Dadaboyev**

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

### **Dilafuz Muhammadiyeva**

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

### **Sherzod Atamuradov**

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

### **Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova**

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

### **Nargiza Imomiddinova**

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

### **Sabohat Qahhorova**

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

### **Qudratillo Bakirov**

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

### **Charos Jumaniyozova**

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv .....87

### **Мехрибон Шамсиддинова**

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку .....97

### **Dildora Suyunova**

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

### **Shodiya Qurbonova**

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

### **Umriniso Pulatova**

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

<b>Maftuna Mamarasulova</b>	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari .....	133
<b>Madina Akramdjanova</b>	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi .....	142
<b>Nargiza O'ralova</b>	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
<b>Lola Usmonova</b>	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
<b>Muxlisa Arislanova</b>	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
<b>Durdona Bultakova</b>	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
<b>Ozodaxon O'ktamova</b>	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
<b>Niluzar Axmedova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

## Content

### Linguistics

#### **Hamidulla Dadaboev**

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century Turkic Literary Language Vocabulary.....8

#### **Dilafroz Muhammadijeva**

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

#### **Sherzod Atamuradov**

Factors that cause poor quality translation work.....31

#### **Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova**

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue Lessons .....44

#### **Nargiza Imomiddinova**

Derivational features of word-terms in the system of military terminology of the Chinese language .....49

#### **Sabohat Qahhorova**

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

#### **Qudratillo Bakirov**

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

#### **Charos Jumaniyozova**

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute semantics .....87

#### **Mekhribon Shamsiddinova**

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in teaching the Chinese languages .....97

#### **Dildora Suyunova**

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of military names .....109

#### **Shodiya Qurbonova**

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

#### **Umriniso Pulatova**

The socio-stratification of youth slang.....125

#### **Maftuna Mamarasulova**

Theoretical foundations of the nomination process.....133

**Madina Akramdjanova**

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

**Nargiza O'ralova**

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

**Lola Usmonova**

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

**Muxlisa Arislanova**

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

**Durdona Bultakova**

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

**Ozodaxon O'ktamova**

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication .....183

**Niluzar Akhmedova**

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English .....193

## LINGVISTIKA

**“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til so‘z boyligi taraqqiyotida tutgan o‘rni**Hamidulla DADABOYEV<sup>1</sup>Dilnoza ABDUVALIYEVA<sup>2</sup>**Annotatsiya**

XIV yuzyil turkiy tillar taraqqiyotining murakkab davri sanalib, d belgili tildan dz belgili tilga uzil-kesil o‘tish jarayonining nihoyalanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda turkiyda bitilgan yirik manbalar qatorida Mahmud ibn Ali as-Saroyi yozgan “Nahj ul farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asarining alohida o‘rni bor. Diniy-ahloqiy ruhda yaratilgan obidaning tovush tizimi, grammatik qurilishi, so‘z boyligi shu davrga xos “Qisasi Rabg‘uziy”, “Guliston bit -turkiy”, “Xusrav va Shirin”, “Muhabbatnoma” kabi Xorazm adabiy muhiti yodgorliklariga ko‘p jihatdan mos tushadi. Ayni chog‘da, manba so‘z boyligi o‘ziga xos bo‘lib, unda nafaqat davr obidalari, balki “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” singari XI-XII asrlarga oid asarlarda aks etmagan istilohu so‘zlar, birikmalaru izofalar qo‘llangan. Ushbu jihat asar leksikasining maxsus tadqiq etilishini talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *so‘z boylik, qo‘lyozma, Xorazm adabiy muhiti, til xususiyati, turkologiya, tub qatlam, o‘zlashma qatlam, tushuncha.*

Turkiy xalqlarning boy adabiy merosiga tegishli ayrim durdona asarlar hanuz nafis qo‘lyozma holida turli mamlakatlar kutubxonalari yoxud xazinalarida saqlanmoqda. Mana shunday nodir yodgorliklar sirasida Mahmud ibn Ali as-Saroyi qalamiga mansub “Nahj ul-farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asarining

---

<sup>1</sup> *Dadabayev Hamidulla Aripovich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**ORCID ID:** 0000-0003-3438-3428

<sup>2</sup> *Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna* – Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**E-pochta:** a.dilnoza1981@gmail.com

**ORCID:** 0000-0001-8740-1883

**Iqtibos uchun:** Dadaboyev H., Abduvaliyeva D. “Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til so‘z boyligi taraqqiyotida tutgan o‘rni. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 8-17.

mustahkam o‘ringa loyiqligi turkiyshunoslikda isbotini topgan.

Mazkur asar hijriy 759 (milodiy 1357-1358) - yilda yaratilgan, lekin uning bitilgan joyi aniq emas. Hozirda asarning bir necha qo‘lyozma nusxalari fanga ma‘lum. Obidaning noyob qo‘lyozma nusxalari ayni paytda Qozon (2 ta ), Sankt-Peterburg (2 ta ) hamda Istanbul (1 ta ) shaharlaridagi fondlarda saqlanadi. Qozondagi 6026 - inventar raqamli nusxa Qozon davlat kutubxonasida ehtiyot qilinmoqda, qo‘lyozmaning kotibi ham, ko‘chirilgan sanasi ham noma‘lum. E.Najibning taxmin qilishicha, bu nusxa XVII yuzyilda ko‘chirilgan [Наджип, 1971: 60-61]. Ikkinchi nusxa Qozon davlat pedagogika instituti Tatar adabiyoti xonasida saqlanadi. Mazkur nusxa hijriy 1185 (milodiy 1771-1772) - yilda Fayzulloh Jafaro‘g‘li tomonidan o‘qituvchisi Salimjon mullo Do‘stmuhammad o‘g‘li uchun ko‘chirilgan [XII –XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили, 1986: 60-61]. Sankt-Peterburgdagi har ikki nusxa ham Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 316 - va B2590 - inventar raqamlari bilan saqlanmoqda.

“Nahj ul-farodis”ning Sankt-Peterburg hamda Qozonda saqlanayotgan nusxalari muayyan nuqsonlardan xoli emas. E.Najibning fikriga ko‘ra, bu nusxalar asar muallifini aniqlashda ko‘mak beradi. Mazkur qo‘lyozmalardan matnshunoslik sohasida foydalanish mumkin.

Asarning Istanbul shahridagi Sulaymoniya kutubxonasida 879-inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxasi hijriy 761 (milodiy 1360) - yilda Muhammad bin Muhammad Xusrav al Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu manba asarning mavjud qo‘lyozma nusxalari ichida eng qadimgisi va eng mukammali sanaladi. Nusxa so‘zlarga diakretik belgi(harakat)lar qo‘yilgani bilan, ayniqsa, qimmatlidir.

Istanbul nusxasi haqida Ahmad Zaki Validiy maqolasida ma‘lumot berilgan [Validi, 1926:331-345]. Keyinchalik bu nusxaning faksimilesi major turkologi Yanosh Ekman tomonidan nashr qilindi [Eckmann, 1956]. Qo‘lyozmaning qog‘ozi, imlosi, diakretik belgilarining xarakteri va boshqa xususiyatlariga asoslanib, Ahmad Zaki Validiy ushbu nusxa Xorazmda ko‘chirilgan, degan xulosaga kelgan. Uning ta‘kidlashicha, nusxa ko‘chiruvchi nomidagi nisba (... *al Xorazmiy*) ham bu fikrni tasdiqlaydi [XII –XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили, 1986: 12].

Qayd etish joizki, yuqorida zikr qilinganlardan tashqari asarning yana bir necha qo‘lyozma nusxalari mavjud. Shulardan biri Yalta Sharq muzeyi tomonidan 1928-yilda Qirimga uyushtirilgan

ekspeditsiya chog'ida topilgan nusxadir. Bu nusxani muzeyning ilmiy xodimi Yaqub Kamol o'rgangan [Якуб, 1930:62]. Uning ma'lumotiga binoan bu nusxa hijriy 792 (milodiy 1390) - yilda Qosim bin Muhammad tomonidan ko'chirilgan bo'lib, asarning eng qadimgi nusxalaridan biri sanaladi [Якуб, 1930: 8]. Afsuski, keyinchalik bu nusxa yo'qolgan [Наджип, 1971: 58].

“Nahj ul-farodis” xususida ilk bor, ya'ni 1885-yilda tatar olimi Shahobiddin Marjoniy ma'lumot bergan [Маржоний, 1885:15-16]. Asarning ba'zi til xususiyatlari E.Fozilov tomonidan tadqiq qilingan, olimning XIV yuzyil Xorazm manbarari so'z boyligini o'zida mujassam etgan ikki jildlik lug'atida yodnomada qo'llangan talay so'zlar izohlangan [Фазылов, 1966-1971]. Obida adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tatar olimi B.Yafarov tomonidan o'rganilgan [Яфаров, 1949].

N.Rahmonov va H.Boltaboyev hamkorligida nashrga tayyorlangan “O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari”ning birinchi jildida asardan parchalar keltirilgan [Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари, 2003: 272-284]. O.Jo'raboyevning “Matnning matnosti sirlari” nomli monografiyasida “Nahj ul- farodis” asari mundarijasi va matni haqida muhim ma'lumotlar berilgan [Жўрабоев, 2017:12-27].

Asar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar orasiga Yanosh Ekmanning ilmiy izlanishlari alohida o'rin tutadi. Olim asarning Istanbulda saqlanayotgan diakretik belgili noyob qo'lyozma nusxasi faksimilesini nashrga tayyorladi [Eckmann, 1956]. Biroq manbashunos asar transliteratsiyasini nashrga tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazolmay vafot etgan. Bu ishni S.Tezjan va H.Zulfiqor davom ettirib, yakuniga yetkazdilar [Nehjul-feradis, 1995]. Shu tariqa, “Nahj ul- farodis” asari to'lig'icha dunyo yuzini ko'rdi. Urg'ulash lozimki, asar yuzasidan olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlarning deyarli barchasi shu faksimile nashr asosida amalga oshirilgan, bu jarayon hanuz davom etmoqda [Kenjayev, 2020]. Asarning “O'zbek adabiyiti xazinasidan” o'rin olib, kitobsevarlarga yangi o'zbek alifbosida taqdim qilinayotgan nusxasi qayd etilgan nash asosida bajarildi.

Shu o'rinda manba muallifi tarjimai holiga tegishli ma'lumotlarning o'ta ozligi, borlari ham taxminiy ekanligini ta'kidlash lozim. Xususan, E. Najibning fikricha, Mahmud ibn Ali hozirgi Tatariston, Boshqirdiston zaminida tug'ilib, voyaga yetgan, keyin Oltin O'rda poytaxtiga borgan va umrining oxiriga qadar shu yerda yashagani. “Nahj ul-farodis”ning Sulaymoniya kutubxonasida

saqlanayotgan nusxasi ko‘chiruvchisi obida muallifining hijriy 761 (milodiy 1360) - yili vafot etganini urg‘ulagan.

1984-yilda Qozonda “Tatariston kitap nāshriyatı” tomonidan nashr etilgan olti jildlik “Tatar adabiyoti tarixi” asarida yodgorlik to‘g‘risida muhim ilmiy mulohazalar bayon qilingan.

“Nahj ul- farodis” diniy-axloqiy, ilmiy-badiiy asar bo‘lib, jami to‘rt bobni qamrab olgan. Har bir bob, o‘z navbatida, o‘n fasldan tashkil topgan. Avvalgi bob Payg‘ambar Muhammad sallollohu alayhi vasallamning fazilatlari bayoniga bag‘ishlangan, ikkinchi bobda halifalar, ahli bayt hamda to‘rt imom fazilatlari bayon etilgan, keyingi bob Alloh taologa manzur bo‘lgan amallarning tavsifi, so‘nggi to‘rtinchi bob esa, insonni Haq taolodan yiroqlashtiruvchi yovuz amallar bayonini o‘z ichiga olgan.

XIII-XIV yuzyil Xorazm adabiy muhitiga oid manbalarning til xususiyatlari turkiyshunoslikda nisbatan yaxshi o‘rganilgani yangilik emas. Shu bilan birga, ushbu maqola uchun obyekt vazifasini o‘tagan “Nahj ul- farodis” leksikasining davr tili so‘z boylgi taraqqiyotida tutgan o‘rni borasida ashyoviy misollar yordamida muayyan mulohaza yuritilmagan. Mavjud kemptikni imkon qadar bartaraf etish o‘zbek turkologlari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Kezi kelganda, obida leksikasini atroflicha tadqiq etishga qaratilgan izlanishning jadallik bilan amalga oshirilayotganini urg‘ulash o‘rinli.

Kuzatishlar yodgorlik so‘z boyligini quyidagi guruhlarga bo‘lgan holda tahlilga tortishning maqsadga molikligini ko‘rsatdi: 1) qadimgi turkiy til (VIII-X) hamda ilk eski turkiy til (XI-XII) obidalarida qo‘llangan tub qatlam; 2) XIII-XIV yuzyilliklarga xos manbalarda ishlatilgan tub qatlam; 3) o‘zlashma qatlam; 4) faqat manbada aks etgan tub qatlam; 5) ilk marta obidada qo‘llangan o‘zlashma qatlam.

Birinchi guruhga oid tub qatlam qarindosh turkiy tillar so‘z boyligining shakllanishida asos vazifasini o‘tagani xususida ortiqcha mulohaza yuritishga hojat yo‘q. Zero, bu borada bor gaplar allaqachon aytilgan. Shunday bo‘lsa-da, Mahmud ibn Ali as-Saroyi qadimgi tub qatlamdan unumli istifoda etganini *ezar* “egar”, *arut*= “eritmoq”, *ekiz* “egiz, egizak”, *baz*= “titramoq, qaltiramoq”, *bičaq* “pichoq, *burčaq* “do‘l”, *isbarla*= “topshirmoq”, *yarašmaq* “yarash, sulh”, *yaru* “yarim”, *yariq* “sovut, zirh”, *yälbisä* “yelpig‘ich” singari ashyoviy misollar bilan tasdiqlashni ma‘qul ko‘rdik.

Ikkinchi guruhga tegishli qatlam sirasidan “Qisasi Rabg‘uziy”, “Xusrav va Shirin”, “ Guliston bit-turkiy”, “ Muhabbatnoma”, “At-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug‘at it-turkiya”, “Tarjumon turkiy, ajamiy va mo‘g‘aliy”, “Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok” singari asar va

risolalarda voqelangan *adīm* “odim, qadam”, *atla-* “qadam tashlamoq, odimlamoq”, *āyāgū* “qovurg’a”, *biyīq* “mo’ylov”, *injlä-* “ingramoq” , *yatsiğ* “uyqu vaqti, tunboshi” kabi soʻzlar oʻrin olgan.

Uchinchi guruhga xos oʻzlashma qatlam asosan arab hamda fors-tojik tillaridan kirgan elementlardan tashkil topgan boʻlib, ularning muayyan qismi ancha barvaqt, yaʼni ilk eski turkiy til yodgorliklarida nazarga tashlanadi. Boshqa bir ulushi XIII-XIV yuzyillar turkiyda bitilgan nasriy va nazmiy asarlar matnida faol ishlatilgan. Shu oʻrinda, “Nahj ul-farodis” soʻz boyligida moʻgʻulcha oʻzlashmalarning qayd etilmaganini taʼkidlash lozim. Buning boisini ikki jihat bilan izohlash zarur. Birinchidan, garchi obida islom dini qabul qilingan Joʻji ulusi hududida bitilgan boʻlsa-da, Muhammad (sav) hamda sahobalar hayoti, faoliyatini yortishda moʻgʻulcha oʻzlashmalarni qoʻllashga hech qanday hojat yoʻq edi. Zero, muallif asarni yozishda Quroʻni karim, Hadisi sharif, shuningdek, anbiyolar tarixiga doir asarlarga suyangan. Ikkinchidan, aksariyat ijtimoiy-siyosiy, harbiy, etnik, chorvachilik va h.k. sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi moʻgʻulcha elementlarning Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy va forsiy xalqlar tiliga oʻzlashishi Nizomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Alisher Navoiy, Boburga oʻxshash adiblar zamoniga toʻgʻri keladi.

Mahmud ibn Ali qoʻllagan arabcha va forscha-tojikcha oʻzlashmalarning salmoqli qismi boshqa davr obidalari tilda ham mavjud boʻlganini tubandagi misollar yordamida dalillash bilan cheklanamiz. *Avsáf* “sifat”, *avqát* “vaqt”, *adib* “shoir”, *ahmar* “qizil”, *baqqál* “baqqol”, *daxl* “kirim, foyda”, *dayr* “ibodatxona”, *jiráb* “echki terisi” singari arabcha, *andám* “boʻy, gavda”, *anjuman* “yigʻin, yigʻilish”, *badraqa* “yoʻl boshlovchi, qulavuz”, *baxšiš* “sovgʻa, mukofot, inʼom, tortiq”, *dád* “adolat; sixiylik” kabi forscha-tojikcha oʻzlashmalar nafaqat “Nahj ul-farodis”, balki XIV yuzyilga xos turkiyda bitilgan boshqa asarlarda ham faol ishlatilgan.

Asar leksikasining davr tili soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrnini baholashda toʻrtinchi va beshinchi guruhlarini shakllaniruvchi qatlam alohida qimmatga ega. Zero, har qanday asar xoh nazm, xoh nasrda bitilgan boʻlsin, unda ishlatilgan soʻzlar, birikmalar, iboralar, albatta, davr adabiy tili soʻz boyligini boyitish va kengaytirishga xizmat qiladi. Mahmud ibn Ali asarida XI-XIV yuzyillarda turkiyda yaratilgan yodgorliklar matnida qoʻllanmagan anchagina soʻzlarning ishlatilgani muallifning davr tili soʻz xazinasiga qoʻshgan salmoqli ulushini belgilaydi.

So'z boyligi tahlilga tortilayotgan asar matnidagina qayd etilgan asl turkiy qatlam sirasiga *arġu* "xorish, charchash", *aġirliq* "to'sin; tom", *buxti* "ikki o'rkachli tuya", *ezā* "ega, xo'jayin; Alloh", *en* "en" kabi tub, *alġuluġ* "xazina", *ataliq* "otalik hissi, otalik", *erkān* "bo'ydoq, uylanmagan", *erlik* "erga tekkan, turmushga chiqqan, eri bor", *boyaġċi* "sirchi, bo'yog'chi", *ilāk* "old, ilgari, old tomondan", *isitmaq* "isitma, harorat", *iri* "ulkan, katta, yirik", *yariċi* "yordamchi, ko'makchi", *yolbaši* "rahbar, yo'lboshi", *kirmāk* "kirish, qadamqo'yish", *yaq-yavuqluq* "qarindoshlik munosabatlari, aloqalari", *körüşkülük* "sodiq", *ayliq* "oylik maosh", *azliq* "etishmaslik, kamlik, ozlik", *siltaġ* "sabab, bois, bahona", *ċibċurġa* "qamchi", *ċökürdāk* "o'rindiq, kursi", *qabarċuq* "qavariq", *qaramtul* "qoramtir", *qarindašliq* "qarindoshlik", *qaċu* "to'g'on", *qorġušin* "qo'rg'oshin" kabi ism turkumiga doir leksemalar, *arqur*= "ko'ndalang turmoq", *alnaš*= "rozi bo'lmoq", *emtit*= "bosh egmoq, bo'ysunmoq", *yegür*= "to'g'ri yo'lga boshlamoq, yo'llamoq", *boyan*= "bo'yalmoq, sirlanmoq", *buta*= "ko'karmoq, barg yozmoq", *yatan*= "uxlamoq, yotmoq", *yonandur*= "murojaat qilmoq", *keċälä*= "kechki payt yo'lga chiqmoq", *közgit*= "ko'rsatmoq, namoyish etmoq, ko'z-ko'z qilmoq", *qabsan*= "qamalmoq, qamalda qolmoq, o'rab olinmoq", *qavuštur*= "qovushtirmoq, birlashtirmoq, qo'shmoq" singari ish-harakatni anglatuvchi so'zlar tegishlidir.

Beshinchi guruh, ya'ni ilk marta "Nahj ul-farodis" matnida qayd etilgan o'zlashmalar qatoridan asosan arabcha hamda forscha-tojikcha elementlar o'rin olgan. Bunday o'zlashmalar aksariyat mavhum ma'noni ifodalashi orqali xarakterlanadi. Mahmud ibn Ali as-Saroyi asarida qo'llangan arabcha va forscha-tojikcha qatlam XI-XII yuzyillarda turkiy tilning lug'at tarkibidan o'rin olgan shu turdagi qatlamning yanaham boyishigaxizmatqildi. "Nahjul-farodis" matnida ta'kidlangan tillarga doir so'z va istilohlar ko'lamining kengligini hisobga olib, ayrim ashyoviy materiallarni keltirish bilan kifoyalanish maqsadga molik topildi. Mahmud ibn Ali as-Saroyi tomonidan birinchi marta qo'llanishga kiritilgan: 1) *arabcha o'zlashmalar* qatoridan *abtar* "farzandsiz, zurriyotsiz", *ajzá* "qism, bo'lak", *arádat* "sodiqlik", *bay va šira* "oldi-sotti, tijorat", *barát* "guvohnoma", *vildán* "xizmatkor, cho'ri", *virđ* "Qur'oni Karimning tunda o'qiladigan bo'lagi", *zabániya* "shaytonlar, do'zax xizmatchilari", *istihsán* "maqtov, ma'qullash", *yaxud* "yaxudiy", *kabira* "ulug', buyuk", *kátib* "munshi, bitigchi, mirza", *kišf* "kashfiyot", *labbayka* "endi sening oldingdaman", *lif* "tola", *mabraz* "hojatxona", *mab'us* "elchi, rasul", *nabz* "tomir urishi", *nahj* "yo'l", *nazir* "nazoratchi", *raja* "umid, orzu", *rahm* "bachadon", *ribát* "rabot, karvonsaroy", *sadáqat* "qurbonlik,

sadaqa”, *Salsabil* “jannatdagi buloq nomi”, *suf* “dag‘al jun”, *tab* “dog‘”, *tasadduq* “sadaqa, qurbonlik”, *fiqh* “Islom qonunshunosligi”, *xaláfat//xiláfat* “xalifalik; xalifa rutbasi, lavozimi”, *šahna//šihna* “qo‘rg‘on, qal‘a, hisor boshlig‘i” va h.k. leksemalar joy olgan; 2) *forscha-tojikcha o‘zlashmalar sirasida ábdast* “tahorat, yuvinish”, *ámáda* “shaylik, tayyorgarlik”, *áhasta* “sekin, asta, ohista”, *bang* “azon, namozga chaqirish”, *báğdár* “bog‘bon”, *dalv* “qovg‘a, yog‘och chelak”, *darázguš* “eshak”, *darbán* “soqchi, darvozabon”, *zanbil* “zambil, savat”, *zabarjad* “sarig‘-yashil rangli qimmatbaho tosh”, *zumam* “yugan”, *kajaba* “kajava”, *mazár* “go‘r, qabr”, *nabira* “nabira, nevara”, *palás* “sholcha, palos”, *parvardigár* “Alloh, Xudo, Tangri”, *pálán* “egar”, *simá* “ko‘rinish, tasvir” kabi turli mavzu guruhlarga xos o‘zlashmalar faol qo‘llangan.

Mahmud ibn Ali as-Saroyining ona tiliga doir cheksiz imkoniyatlardan samarali foydalangani uning o‘zlashmalardan turkcha-o‘zbekcha qo‘shimchalar ishtirokida ko‘pgina qorishiq so‘zlar yasashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qorishiq yasamalarni, ularning shakllanishida qatnashgan affiksler vazifasidan kelib chiqib, ism hamda ish-harakatni anglatuvchi leksemalarga ajratish mumkin. Quzatishlar o‘zlashmalarga qo‘shilib, turli ma‘no ifodalashga yo‘naltirilgan qo‘shimchalar ichida qo‘yidagi semalarni anglatishga xizmat qilgan sermaxsul *-liq,-lik,-luq,-lük, -liğ,-lig,-luğ,-lüg* formanti qo‘llanishining o‘ta baland bo‘lganini yana bir bor dalilladi: 1) biror kasb-hunar yoki narsa-buyumga egalik qilish – *bázigánlik* “savdotsotiq bilan shug‘ullanish; tijorat” (< *bázigán* “savdogar, savdotsotiq bilan shug‘ullanuvchi, tojir”), *imámatliq, imámliq* “imomlik xizmati, imom lavozimi” (< *imám* “namozda oldinda turuvchi”), *qáziliq* “qozilik” (< *qázi* “qozi, sudya); *ma‘nilik* “narsa-buyumi bor” (< *ma‘ni* “ma‘no, mazmun”), *mállig* “boy, badavlat” (< *mál* “boylik, tavar”), *hálvalig* “holvasi bor” (< *hálva*) va h.k. 2) holat, ahvolni anglatadi – *ahyálik* “bardamlik” (< *ahyá* “bardam, sog‘; tirilish), *áramliq* “sokinlik, tin, dam” (< *áram* “tinch, oram”); 3) xususiyat, sifatni ifodalaydi – *ahmáqliq* “ahmoqlik” (< *ahmáq* “esi past, tentak; o‘qimagan”), *ábruylik* “hurmatga sazovor, hurmatli, hurmatga ega” (< *ábruy* “obru-e‘tibor, hurmat”); 4) biror yurt, millat, uruqqa tegishlilik – *madinalik* “Madinadan chiqqan, Madinada tug‘ilgan” (< *Madina*), *kufalik* “Kufadan chiqqan, Kufada tug‘ilgan”; 5) mavhum ma‘no kasb etadi – *mazlumliq* “istibdod” (< *mazlum* “ezilgan, huquqdan mahrum etilgan”, *manfa‘atlik* “foydali, foydasi tegadigan” (< *manfa‘at* “foyda”), *masaqqatliq* “qiyinchiliklarga bardosh berish” (< *masaqqat* “qiyinchilik, azob, uqubat”) va h.k.

“Qaysidir xususiyat, holat, narsa-buyumga egalik” ma‘nosini bildiruvchi *-li,-li* affiksi ishtirokida o‘zlashmalardan yasalgan

ayrim birliklar ham manbada ishlatilgan: *nikáhli* “igoh qilingan, nikohlangan” (< *hikáh* “uylanish, turmush qurish”). Shu o‘rinda, hozirga o‘zbek adabiy tilida sifat turukumiga xos so‘zlarning yasashda o‘ta mahsuldor sanaluvchi *-li* affiksining XI-XIV yuzyillarda onda-sonda so‘z yasash jarayonida qatnashgani uning qayd etilgan davrlarda kammahsul qo‘shimchalardan biri bo‘lganligidan dalolat berishini urg‘ulash lozim. Tahlil etilgan affikslar ifodalagan ma‘noga zid, ya‘ni “ega emaslik” mazmunini ifodalovchi *-siz, -siz, -suz, -süz* affiksi qatnashgan qorishiq so‘zlar oz bo‘lsa-da, “Nahj ul-farodis”da ishlatilgani kuzatildi- *jamálsiz* “xunuk, badbashara” (< *jamál* “husn, chiroy”), *rağbatsiz* “xohishsiz, qiziqishsiz, maylsiz” (< *rağbat* “xohish, mayl, qiziqish”), *šubhatsiz* “shubhasiz” (< *šubhat* “shubha”), *qadarsiz* “baxtsiz, qadrsiz” (< *qadar* “taqdir, taqdiri azal”), *hálvasiz* “holvasisiz” (< *hálva*) va h.k. Asar muallifining qorishiq so‘zlar yasash mahorati o‘zlashmalardan ish-harakatni anglatuvchi birliklarning yuzaga chiqishida yaqqol o‘z aksini topgan. Chunonchi, “faol, aniq, narsa-buyumlarga yo‘naltirilgan harakatni ifodalovchi *-la* qo‘shimchasi ishtirokida voqelangan ayrim qorishiq so‘zlar obidada ko‘zga chalinadi. Ba‘zi ashyoviy misollarni keltirish bilan kifoyalanamiz: *aybla*= “ayblamoq, aybdor sanamoq” (< *ayb* “gunoh”), *haqla*= “hurmat qilmoq” (*haq* “e‘zoz, hurmat”). “Bir holat-vaziyatdan boshqa holat-vaziyatga o‘tmoq” yoki “Kimnidir bir holat-vaziyatdan boshqa holat-vaziyatga o‘tishga majbur qilmoq” ma‘nosini bildiruvchi *-lan= -landur=* hamda *-lat=* affikslari bilan yasalgan qorishiq so‘zlar o‘ta oz bo‘lsa-da, manba tilida ishlatilgan. Xususan, *juftlan=* (<*juft* “xotin, zavja, rafiq”), *juftlandur=* (<*juft* “xotin, zavja, umr yo‘ldosh”), *ázárlat=* “hafa qildirmoq, ozor berdirmoq” (< *ázár* “ozor, uqubat, azob”) shular sirasidandir.

Izlanish asar matnida ilk bor qayd etilib, keyinchalik o‘zbek adabiy tili so‘z boyligidan mustahkam o‘rin egallagan va faol qo‘llangan qator turkcha-o‘zbekcha, arabcha, forsha -tojikcha izofalarning mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, *xáslar ruzasi* “arkoni davlat tutadigan ro‘za”, *malik hukmi* “hukmdor buyrug‘i”, *xiláfat qabuği* “xalifalik darvozasi”, *ahkámi šariat* “shariat qonunlari, shariat yo‘l-yo‘ruqlari”, *Malak ul-mavt* “O‘lim parishtasi, ya‘ni Azroil”, *Masjid ul-harám* “Makka shahridagi masjid” singari izofali birikmalar davr turkiy til so‘z xazinasining takomillashuviga xizmat qilgan.

Xullas, Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahj ul-farodis” asari til sathlari nuqtai nazaridan umumturkiy xarakterga ega bo‘lib, unda ilk bor qo‘llangan leksik qatlam qarindosh turkiy tillar, xossatan, o‘zbek adabiy tili so‘z boyligining rivojlanishi va taraqqiy etishida salmoqli ulush bo‘lib qo‘shilgani muhim ahamiyatga molik.

### Adabiyotlar

- Eckmann, J. 1956. *Nehjul-feradis I*. Tipkibasim. Ankara.
- Eckmann, J. 1995. *Nehjul-feradis I. Metin, II*. Tipkibasim. Türk Dil Kurumu Yayınları: 518. Ankara.
- Fazylov, E. I. 1966–1971. *Staro‘zbekskiy yazyk. Khorezmiyskie pamyatniki XIV veka Vols. 1–2*. Toshkent: Fan.
- Fazylov, E. I. (Ed.). 1986. *XII–XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili*. Toshkent: Fan.
